| **Terms** | **Atamalar** | **Izoh** |
|---|---|---|
| Linear equation | Chiziqli tenglama | Barcha noma'lumlarining darajasi birdan katta bo'lmagan tenglamaga chiziqli tenglama deyiladi. |
| The root of the equation | Tenglamaning yechimi | $a_1x_1+\ldots+a_nx_n=b$ tenglamani to'g'ri sonli tenglikka aylantiruvchi $\vec{\xi}=(\xi_1,\ldots,\xi_n),\xi_i\in F, i=\overline{1,n}$ vektorga berilgan tenglamaning yechimi deyiladi. |
| The system of m linear equations with n unknowns | n ta noma'lumli m ta chiziqli tenglamalar sistemasi | Ushbu $\begin{cases} a_{11}x_1+a_{12}x_2+\ldots+a_{1n}x_n=b_1 \\ a_{21}x_1+a_{22}x_2+\ldots+a_{2n}x_n=b_2 \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ a_{m1}x_1+a_{m2}x_2+\ldots+a_{mn}x_n=b_m \end{cases}$ (1) sistemaga $F$ maydon ustida berilgan n ta noma'lumli m ta chiziqli tenglamalar sistemasi deyiladi |
| The root of the system of m linear equations with n unknowns | n ta noma'lumli m ta chiziqli tenglamalar sistemasining yechimi | n ta noma'lumli m ta chiziqli tenglamalar sistemasining yechimi deb shunday $\vec{\xi}=(\xi_1,\ldots,\xi_n),\xi_i\in F, i=\overline{1,n}$ vektorga aytiladiki, u sistemaning barcha tenglamalarini to'g'ri tenglikka aylantiradi. |
| Definite and indefinite systems | Aniq va aniqmas sistema | Yagona yechimga ega bo'lgan sistema aniq sistema, cheksiz ko'p yechimga ega bo'lgan sistema aniqmas sistema deyiladi. |
| The result of the system of linear equations | CHTSning natijasi | Berilgan ikkita CHTS uchun birinchisining har bir yechimi ikkinchisi uchun ham yechim bo'lsa, ikkinchi CHTS birinchi CHTSning natijasi deyiladi. |